

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.M.Abdunazarov, M.H.Umarova	
Surxondaryo viloyati o'simliklar olamining geografik tarqalishi.....	272
A.K.Ergashev	
Avstraliya materigi yer usti suvlari tarqalishining hududiy xususiyatlari (daryolar misolida).....	277
R.T.Pirnazarov, S.I.Ussonova	
O'zbekiston va unga tutash tog'li hududlardagi to'g'onli ko'llar, ularning tadqiq etilishi va ular bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi.....	282

ILMIY AXBOROT

D.I.Ibragimova	
Isajon Sultonning tarixiy hikoyalarida mavzu va g'oya.....	290
Sh.A.Yuldashev, S.Muhammadjonova	
Optoelektronikada qo'llash uchun optronlar yaratish.....	293
A.A.Ergashev	
Nota muharriri finale-2003 ning amaliyotda qo'llanishi.....	298
I.Rustamov	
Yangi O'zbekistonda yaratilayotgan doira darsliklari va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli.....	302
M.Nasritdinova	
Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-axloqiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirishda musiqa san'atining o'рни.....	306
M.V.Nasridinov	
Ingliz va o'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik sathlararo verbalizatorlari struktural-semantik turlari maydoni.....	310
G.O.Shaxbazova	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	315
N.N.Norxo'jayeva	
Oliy texnik ta'lim muassasalari talabalarining kreativ-grafik kompetentligini rivojlantirish komponentlari va kriteriyalarining pedagogik mazmuni.....	318
D.R.Ismoilova	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "Jinoyat" semantik maydoni.....	322
D.B.Toshpo'latova	
Malakaviy amaliyot vositasida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashga innovatsion yondashuv.....	326
M.Ф.Рахмоналиева	
Медиаобразование и медиакомпетентность в современном социокультурном контексте в преподавании английского языка для студентов технического института.....	332
M.F.Adasheva	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	336
U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva	
O'qish savodxonligining asosiy tushunchalari va bolalar rivojlanishidagi roli.....	340
M.A.Abdujalilova	
Brief theoretical and historical roots of lingo-culture science. Lingo-cultural brief analysis of household items lexemes.....	348
U.T.Isakov	
O'zbek musiqa madaniyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	351
U.U.Xolova	
Abu Ali Ibn Sino va tasavvuf.....	356
T.Q.Jabborxonov, F.Sh.G'aprov, A.F.Raxmataliyev, Z.O.Yusupov	
O'rta Osiyoda tarqalgan Inula L. Turkumiga mansub turlarning ekologik mintaqalarda tarqalish tahlillari.....	360
Y.Y.Turakulov	
Pedagoglar kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari.....	366



UO'K:378.147.34

NOTA MUHARRIRI FINALE-2003 NING AMALIYOTDA QO'LLANISHI**ПРИМЕНЕНИЕ НОТНОГО РЕДАКТОРА FINALE-2003 НА ПРАКТИКЕ****USING THE NOTE EDITOR FINALE-2004 IN PRACTICE****Ergashev Alijon Abdullayevish**

Farg'ona davlat universiteti Vokal va cholg'u kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada nota muharriri Finale-2003 dasturi imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, musiqiy ta'limda samaradorlikka erishish imkoniyatlari borasida, shuningdek, mazkur kompyuter dasturining amaldagi nota muharrirlari imkoniyatlari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Kompyuter musiqasi nota dasturlari orasida mutaxassislar fikricha ham, foydalanuvchilar soni bo'yicha ham yetakchi o'rinni Make Music tomonidan ishlab chiqilgan Finale dasturi egallaydi.

Аннотация

В данной статье анализируются рациональное использование возможностей нотного редактора Финал-2004, возможности достижения эффективности в музыкальном образовании, а также сравнительный анализ этой компьютерной программы с возможностями существующих нотных редакторов. Среди компьютерных программ для нотной записи Finale, разработанная компанией MakeMusic, занимает лидирующее место как по мнению экспертов, так и по количеству пользователей.

Abstract

This article analyzes the rational use of the capabilities of the Final-2003 music editor, the possibilities of achieving efficiency in music education, as well as a comparative analysis of this computer program with the capabilities of existing music editors. Among computer notation programs, Finale, developed by MakeMusic, occupies a leading position both in the opinion of experts and in the number of users.

Kalit so'zlar: nota muharriri Finale-2003, musiqiy tafakkur, ovoz imkoniyatlari, dastur imkoniyatlari, ichki eshitish qobiliyati.

Ключевые слова: нотный редактор Финал-2003, музыкальное мышление, звуковые возможности, возможности программного обеспечения, внутренний слух.

Key words: music editor Final-2004, musical thinking, sound capabilities, software capabilities, internal hearing.

KIRISH

Axborot texnologiyalaridan turli xil kasbiy faoliyatda foydalanish qobiliyati zamonaviy sharoitlarda tobora zaruriy talabga aylanib bormoqda. Musiqachi faoliyatida musiqa muharrirlari alohida ahamiyatga ega, chunki ular juda keng imkoniyatlarga ega va deyarli barcha musiqa mutaxassisliklari vakillari tomonidan talab qilinadi. Musiqa muharrirlari kompozitorlar va aranjirovkachilar tomonidan ijodiy muammolarni hal qilishda, ijrochi musiqachilar tomonidan turli xil transkripsiyalarni, mashhur asarlarning aranjirovkalarini, original ijro nashrlarini yaratishda, professional musiqachilar esa bu dasturlardan uslubiy va ilmiy ishlar uchun musiqiy material tayyorlashda foydalanadilar. Musiqa muharrirlari turli sohalarida – professional musiqiy ta'lim va ijodda, kino sanoatida, televideniya, teatr, kontsert, musiqa nashriyot tashkilotlari va kutubxonalarda talabga ega[1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kompyuter musiqasi nota dasturlari orasida mutaxassislar fikricha ham, foydalanuvchilar soni bo'yicha ham yetakchi o'rinni MakeMusic tomonidan ishlab chiqilgan Finale dasturi egallaydi. Ushbu dasturning yaralishi va foydalanish tarixi chorak asrdan ko'proq vaqtga borib taqaladi. 1988-yilda taqdim etilgan Finale qisqa vaqt ichida kompyuter nota muharriri sifatida jahon standartlari asoschisiga aylandi va shu kungacha ushbu sohadagi yetakchi mavqei ishonchli saqlab qoldi.

ILMIY AXBOROT

Final nota muharriri mashhurligining sababi ham uning ta'lim jarayoni bilan integratsiyalashuvi, musiqa o'rganish jarayonida yuzaga keladigan muayyan muammolarni hal qilishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Finale Make Music tomonidan ishlab chiqilgan va birinchi navbatda musiqiy ijro mahoratini oshirishga qaratilgan Smart Music interaktiv musiqiy ta'lim dasturi bilan o'zaro aloqani ta'minlaydi.

Finale o'z fayllarini Smart Music mashq formatiga eksport qilishni qo'llab-quvvatlaydi, u notalarning toza intonatsiyasini ishlab chiqish, ritmik jihatdan aniq ijro etish, virtual hamrohlik bilan yoki virtual ansambl (orkestr) tarkibida ijro, improvizatsiyani o'rgatish va hokazolar uchun mo'ljallangan[2;560]. Finale va Smart Music ikkalasidan ham ish stoli kompyuterlarida va planshet tipidagi qurilmalarda foydalanish mumkin. Finalga alohida qiziqish, shuningdek, ushbu dasturni o'zlashtirishda ma'lum bir qiyinchilik tufayli yuzaga keladi. Darhaqiqat, masalan, Avid Technology-ning Sibelius musiqa muharriri bilan solishtirganda, Finale intuitiv interfeysga ega emas. Finalni hech kim osonlikcha o'zlashtira olmaydi.

Dasturchilarning dasturning so'nggi versiyalarida bir qator variantlar va interfeyslarni soddalashtirishga qaratilgan barcha sa'y-harakatlariga qaramay, u bilan ishlash dastlabki tayyorgarlikni talab qiladi. Shu sababli, ushbu dasturga bag'ishlangan ko'plab o'quv adabiyotlari yaratilgan va yaratilmoqda. O'zbek tilidagi ilk yaratilgan o'quv qo'llanmalaridan Alijon Ergashevning 2021-yilda yaratgan "Finale 2003 dasturida musiqa notalarini yozish" deb nomlanadi.

Dasturning asosiy funktsionalligi ancha vaqtdan beri mavjud va uning so'nggi versiyalaridagi o'zgarishlarning aksariyati interfeysni soddalashtirish va foydalanish qulayligini oshirishga qaratilgan. Finale ning oldingi versiyalari odatda interfeysdagi variantlarning joylashuvida farqlanadi, bu odatda asosiy matnga izohlarda aks etadi.

Musiqiy ta'lim samaradorligini oshirish uni yanada rivojlantirishda turli omillarni sanab o'tishimiz mumkin. Bulardan eng muhimi sanalgan kompyuter nota muharrirlarini alohida e'tirof etish zarur. Kompyuter dasturlari o'zining soddaligi, ish jarayoninig qulayligi bilan foydalanuvchilarni jalb qilib kelgan. Ushbu dasturlar ichida xalqchil va soda shu bilan birga ko'p imkoniyatli xisoblangan Finale-2003 muharrir dastur hisoblanadi.

Final dasturi ishga tushgandan so'ng ekranda dastlab yangi va bajarilgan amallar haqidagi oyna ochiladi. Ochilgan oynaning kerakli bo'limidan yangi hujjat hosil qilish yoki avvaldan saqlanilgan hujjatni ochish, uni chop etish yoki boshqa turdagi hujjat etib saqlash kabi ko'plab amallarniham bajarish mumkn. Bu albatta bo'lajak musiqa o'qituvchilari uchun ovozli tartibda ishlashda ijobiy hisoblanadi.

Agar yangi sahifa ochib nota yozish talab etilsa, chap tomondagi yuqoridan pastga tomon uchinchi qatordagi yozuv belgilanadi va OK tugmasi bosiladi. Nota yozish uchun nota yo'li ochilgach tonallik belgilanadi, masalan C-major.

Ushbu belgilangan vazifalar darhol nota matnida o'z o'rnida paydo bo'ladi va o'quvchi ongida ma'lum dastlabki nazariy bilimlar aks etishiga imkon yaratadi. Bu esa o'quvchilarning fan bo'yicha nazariy bilimlari mustahkamlanishi barobarida ularda amaliy ko'nikmalar shakllanishiga shart-sharoitni kengaytirib, musiqiy bilim olishga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi.

Amallar ketma-ketligida o'lchovlardan biri tanlanadi, maxsus yordamchi klaviatura ko'rsatkichi yordamida nota yo'liga birin-ketin notalar joylashtiriladi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Final dasturi musiqachiga zarur bo'lgan ko'plab sifatlasni shklantirishda, rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi va ularni shakkantirishda ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shundan:

- nota matnini qulay holda terish;
- musiqa asarini yaratish bilan birga oson tahrirlash interfeysiga ega.

Final muharriri ijro vaqtida siz tomondan belgilangan sur'at hamda dinamik belgilarga asosanib asarni (predvoritelniy) variantini ohanglantiradi. Bu o'rinda dastur tomonidan ijro etilayotgan asar jonli ijro kabi ijro etilmasa, biroq, dasturda musiqa asarni ijro etayotgan cholg'u sozining sadosi shartli ravishda maqbul natijaga erishish va tasavvur etishga ko'mak berishi orqali o'z qiymatini saqlaydi.

Menyu satrdan «Play» menyusini tanlab «Dictionary» buyrug'iga kiramiz, mazkur bo'lim o'z o'rnida bir necha musiqa ijrosiga ta'sir qiluvchi va dasturga doir bir qancha buyruqlardan tashkil

topgan. Mazkur bo'limda har bir buyruq harakatini tahrir qilish bilan o'z buyruqlaringizni qo'shishingiz va ularga harakatlar tayinlashingiz mumkin. Ushbu holatda barcha so'zlar ikki toifa: «System text» (butun tizimga ta'sir qiluvchi matn) va «Staff text» (bitta nota yo'lga ta'sir qiluvchi matn)larga bo'linadi.

Har bir *p* va *pp* kabi belgilar aynan o'ziga birkirilgan nota yo'lga, hamda o'ziga tegishli bo'lgan ovoz bitta kuyiga ta'sir qiladi. Bu kabi qulaylik kompyuter dasturida ovoz yordamda imkoniyati cheklangan bo'lajak musiqa o'qituvchilari uchun ham manfaatli va qulaydir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mazkur dasturda cholg'u sozlarining sadolanishi haqiqiy cholg'udan biroz farq qiladi. Masalan, skripka «Violin»ni tanlasak, tanlagan skripkamiz birinchi taktni kamoncha bilan, keyin tirnash "pizzicato" sadosi bilan, keyin yana skripka sadosi va tremolo tebratma tovushi kabi ijro etilayotganini aks ettirish imkoniga ega. Final muharrir dasturida hosil qilingan ortiqcha belgilarni "Hide" buyrug'i yordamida berkitish partitura sifati va ko'rinishi buzilmasligiga yordam beradi.

Bo'ljak musqa o'qituvchilari o'quvchilar ovozini yo'lga qo'yishda musiqiy ohang hosil qilish bilan birga ularni o'zaro uyg'un bog'lash hamda vokaliz o'rganish qulay shaklda o'rganish mumkin. Albatta vokalizlar o'quvchilarda ovozni to'g'ri yo'lga qo'yish texnikasini rivojlantirishga, shuningdek o'quvchining xonandalik ovozi shakllantirish, ichki eshitish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Dasturda so'zsiz kuy korinishidagi mashqlar, ijrochi o'quvchidan zaruriy texnik vazifalarni bilishni talab etadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisi o'quvchilar idrokini shakllantirishda vokaliz mashqlarning o'z o'rnini katta. So'zsiz kuylashda bor diqqat e'tiborini xonandalik nafasi, uni sarflash, talaffuz-ortikulyatsiya, psixologik jihatdan badiiy-emotsional xis qilish, ichki eshitish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchida temp va ritmni bir maromda ushlab turish qobiliyatini yanada yaxshi shakllanish bilan birga asarda talab etilgan dinamik belgilarga bo'y sunishga ko'nikma xosil qiladi.

Final dasturida vokaliz mashqlar unli (a, o, ye) tovushlar bilan hamda o'quvchilar imkoniyatlarni hisobga olgan holda undosh tovush bilan ham foydalanishni tavsiya etish mumkin. Talaba mazkur holatda klaviaturadagi harflardan foydalanishu mumkin hisoblanad. Masalan, lya-a-a, do-o-o, re-e-e va hokazo. Shuningdek, klassiklarda "p" yoki "f" iboralari faqatgina tovush kuchidagi o'zgarishlarni bildirmasdan, balki asar xarakterini anglatishga xizmat qiladi. Kuchli yoki kuchsiz ovoz bilan kuylashni xayolda tutish bilan chegaralanib bo'lmaydi. Ijro etilayotgan tovush nimani ifodalay olishini tasavvur qilish ham muhim. She'riy matn va musiqaning ma'lum badiiy mazmuni faqat bizning ongimizga ta'sir ko'rsatib qolmay, hissiyotlarni ham uyg'otadi. Kuylayotgan xonandada badiiy xissiyot vujudga keladi. Bu hissiyot nihoyatda yorug' va yorqin bo'lganidagina tinglovchilar qalbida o'z aksini topadi. Shundagina tinglovchilar ijro etilayotgan asar obrazlariga mexr kuyishadi, ularga hamdardlik yoki nafrat xissiyoti uyg'onadi. Faqat shunday hollarda san'atning ta'sirchanligi, uning tarbiyaviy vazifasi haqida so'z yuritish mumkin. Xonandalar konsertlarda, saxnalarda o'zlarini kamtar va oliyanob tutishlari zarur. Mashgulotlarning boshlangich davri professional san'atda poydevor vazifasini o'tashi sababli uning ahamiyati juda katta.

Bo'lajak san'atkorning taqdiri aynan mana shu davrda hal bo'ladi

Shuningdek, Final muharriri dasturi yordamida:

- nota yo'lga notani yozish;
- notalarni tahrir qilish;
- ijro etilayotgan notani ayni tarzda tinglash va kuzatib borish;
- asarni yuqori va pastki tonallikka transpozitsiya qilish;
- musiqa asarining notasini qog'ozga bosib chiqarish kabi vazifalar bajarish mumkin.

XULOSA

O'quvchi asar notasini mazkur dasturdan foydalanib yozishi, yo'l qo'ygan kamchiligini aniqlashi, tuzatishi, asarni maxsus dasturli sintezatorda ijro ettirib tinglashi, ijodini baholashi, turli musiqiy shakllarga xos asarlarni yoki ularning parchasini tahliliy tinglashi hamda asar borasida ma'lum xulosalarga kelishi mumkin.

ILMIY AXBOROT

Xulosa sifatda shuni aytib o'tish mumkinki, bu kabi dasturlardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish orqal bo'lajak musiqa o'qituvchilar musiqiy tafakkurini rivojlantirishni yanada oshirilishiga erishishlari mumkin. Zero bugungi sifatli ta'lim ertangi istiqbolni belgilab beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алижон Эргашев. "Finale 2003 дастурида musiqa ноталарини ёзиш". Услубий қўлланма. Фарғона давлат университети. Farg'ona davlat universiteti electron kutubxonasi. 2021 <https://drive.google.com/file/d/1ZxJltJFCQABbR7kcB7jbQKF5T9i8v71M/view?pli=1>
2. Белунцов В.О. Новейший самоучитель работы на компьютере для музыкантов. 3-е изд. – М.: ТехБук (ДЕСС), 2003. 560 с.
3. Шеремет В.П. Музыка и Finale. – Краматорск: Тритон-МФ, 2007. 283 с.
4. Ergashev, A. (2022). MUSIQA TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 545-554.
5. Ergashev, A. (2022). MUSIC EDUCATION IN FOREIGN COUNTRIES. Science and Innovation, 1(7), 262-265.
6. Информатика ва ҳисоблаш техникаси асослари. 8-синф. 3-бет. 2006 йил.
7. Дўстмурод Норқулов. Вақтдан оқилна фойдаланиш. Гулистон журнали №3, 1999 йил. 42-43 бетлар.
8. Х.Х.Нурматов. Муסיқанинг долзарб назарий муаммолари. Тошкент -2002. 2-бет.
9. Ergashev, Alijon (2022). MUSIQA TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 545-554.
10. FINAL 2003 DASTURIDA NOTA MATNLARINI TAHRIRLASH MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHISINING FAOLYATIDA ZARURIY MALAKA SIFATIDA TURKEY THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH International scientific-online conference Part 23: MARCH 9th 2024